

**SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDINING MO'G'UL
BOSQINCHILARIGA QARSHI KURASHI**

Mamajonov Soyibjon Xalilovich,

Soyibjonmamajonov67@gmail.com,

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi

Abdurahmonov Husniddin Furgatjon o'g'li

Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

G'ofurov Shahriyor Xusniddinovich

Farg'ona Davlat Universiteti Harbiy ta'lim fakulteti kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Manguberding jang olib borish usullari va harbiy san'ati haqida qisqacha yoritilgan. Ushbu maqola Oliy va O'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalariga harbiy san'at sirlari bilan yaqindan tanishish uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: jang, harbiy san'at, o'rnak ko'rsatish, taktik usul, qipchoq cho'llari, stavka.

Keywords: battle, military art, tactics, strategy, Jaloliddin Manguberdi, Mongol invasion, cavalry, battlefield, leadership, Khorezmian army

Abstract: This article provides an overview of the military strategies and combat tactics of Jaloliddin Manguberdi in his struggle against the Mongol invaders. It highlights his leadership qualities, bravery, and ability to effectively utilize battlefield conditions and tactical innovations. Special attention is given to his application of both classical and original military methods, including the concentration of forces in decisive directions and the flexible use of cavalry and infantry. The article is intended for students of higher and secondary specialized educational institutions to enhance their understanding of the fundamentals of military art and historical warfare experience.

Jaloliddin Manguberdi jang olib borish sirlarini yoshligida ov va otda musobaqalarni, nayza uloqtirish va kamondan otishni xush ko'rganligi tufayli chuqur o'zlashtirgan. U yoshligida o'z murabbiylaridan harbiy san'at sirlarini katta ishtiyoq bilan o'rganib kelgan. Yoshi ulg'aygan sari olib borilgan janglarda harbiy san'at sirlarini bilishi qo'l kelgan, o'z harbiy mahoratini yanada takomillashtirib borgan. Janglarda o'zining shaxsan birinchilar qatorida jangga kirishi bilan qolganlarga o'rnak ko'rsatgan. Avvalo jang maydonida joyning xususiyatini, dushmaning taktikasini bilishi, ya'ni bo'lajak jangni dushman qanday olib borishi rejalaridan xabardor bo'lishi unga qo'l kelgan. Qadimgi davrda bo'lib o'tgan Levktra jangida Epaminond tomonidan o'ylab topilgan hal qiluvchi yo'nalishda asosiy kuchlarni jamlash taktik usulini Jaloliddin Manguberdi 1218 yilning oxirida Xorazmshoh

qo'shinining mo'g'ullar bilan birinchi to'qnashuvi bo'lib o'tganida qo'llagan, dushmanga asosiy kuchlari bilan qanotdan zarba bergan. Bunday taktik tamoyil qadimgi davrda Yunonistonda hukmronlikka erishish uchun bo'lib o'tgan janglarda yuzaga kelgan. Bu jang miloddan avvalgi 371 yilda Levktra shahri yaqinida, podshoh Kleombrot boshchiligidagi spartaliklar va Epaminond boshchiligidagi fivaliklar o'rtasida bo'lib o'tgan. Kuch va vositalar nisbatini e'tiborga olgan Epaminond spartaliklarning 11 ming kishilik qo'shiniga qarshi o'zining 7,5 ming kishilik qo'shinini bosh zarba berish yo'nalishida bo'lgan chap qanotida kuch jihatdan ustunlik yaratib, ya'ni jangning hal qiluvchi uchastkasida kuchliroq bo'ldi. Levktra jangida Epaminond harbiy san'at tarixida birinchi bo'lib yangi taktik tamoyil – front bo'ylab kuchlarni notekis joylashtirish, hujum yo'nalishida kuch jihatdan ustunlik yaratish usulini qo'lladi. Kuchlarni front bo'ylab notekis joylashtirish usuli bizning kunlarda ham muhim tamoyil bo'lib qolmoqda. O'sha davrlarda mo'g'ul otryadlari Xorazmshoh mulklari bilan chegaradosh qipchoq cho'llariga qochgan, bo'ysunmas merkit qabilalarini ta'qib etishni va tor-mor etishni tugatgan edilar. Muhammad Xorazmshoh 60 minglik qo'shin bilan shimolga yo'nalib, Irgiz daryosini kechib o'tib va To'rg'ay cho'llarida mo'g'ullar bilan to'qnashgan. Mo'g'ul qo'shinining boshida Chingizxonning katta o'g'li Jo'ji turgan. Ularning o'rtasida bo'lib o'tgan uch kunlik jangda 20 mingga yaqin xorazmliklar halok bo'lgan, mo'g'ullarning yo'qotishlari kamroq bo'lgan. Bu jangda Jaloliddin mo'g'ullar tomonidan ta'qib etilgan merkitlar askarini so'roq qilish natijasida dushmaning soni qancha ekanligini aniqlab olgan. O'z sarkardalariga joyning xususiyatidan foydalangan holda jangni olib borsa g'alabaga erishishi mumkinligini tushuntirgan. Jaloliddin jang maydonidan keng ko'lamda foydalangan holda dushmanni sarosimaga solib va hiyla ishlatib dushmanga o'zining olti minglik avangardi bilan bosh zarba bergan. Mo'g'ullar Jaloliddin avangardiga talafotlar yetkazib so'ng ta'qib qilishini bilgan va oqibatda dushman kuchlariga o'zining asosiy kuchlari bilan qanotdan kutilmaganda qaqshatqich zarba bergan. Mo'g'ullar oqibatda sho'r tuproq yerga (solonchak – sho'rxok) chekinishga majbur bo'lib botib qolishgan. Bundan foydalangan Jaloliddin qo'shinlari mo'g'ullarning katta qismini qirib tashlashgan. To'rtinchi kun kechqurun Jo'ji o'z qo'shinini olib ketgan. Bu to'qnashuvda Xorazmshohning katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi o'zining harbiy san'atini birinchi marta namoyish etgan. Agar u matonat va botirlik namunalarini ko'rsatmaganida xorazmliklar mag'lubiyatga uchragan bo'lar edilar. Chingizxonning stavkasiga qaytib kelganidan keyin Jo'ji otasiga Xorazm qo'shinining holati va Jaloliddin Manguberdining shaxsiy qahramonligi to'g'risida aytib beradi. Jaloliddin hayotining asosiy maqsadini mo'g'ullarga qarshi kurashda deb bilgan. 1219 yilda Chingizxon qo'mondonligidagi mo'g'ullar armiyasi Xorazmga bostirib kirdi. Xorazmshoh qo'shinlarini qismlarga bo'linib qarshi jangga kirishi Chingizxonga qo'l keldi, chunki uning strategiyasi dushmanni qismlarga bo'lib yakson qilishdan iborat edi. Mo'g'ullarga qarshi xorazmliklarning qarshi kurashish davrining

1221 yil yozida Jaloliddin Chingizxonga qarshi chiqdi. Parvon qishlog‘i yaqinidagi jangda mo‘g‘ullar tor-mor etildilar, ularning harbiy boshliqlarining turli xil harbiy ayyorliklarni qo‘llashlariga qaramasdan qochishga majbur bo‘ldilar. Jang qat‘iy bo‘lib, uzoq davom etdi. Bu jangda Jaloliddin yangi taktikani qo‘lladi. Otlilar otlaridan tushib, otlarining iplarini bel kamarlariga bog‘lab, kamonlardan otib piyoda safda jang qildilar. Jangning birinchi kuni g‘olibni aniqlamadi. Ikkinchi kuni mo‘g‘ul harbiy boshliqlari o‘z qo‘shinlarining holdan toyganligi sababli harbiy ayyorlikni qo‘lladi, otlarga namatdan yasalgan qo‘g‘irchoq chavandozlarni o‘tqizib jangga kiritdi. Avvalida Jaloliddinning jangchilari sarosimaga tushdi, lekin tezda sulton ularga g‘alabaga ishonch uyg‘otdi. Mo‘g‘ullarning bir nechta hujumlarini qaytarganlaridan keyin hal qiluvchi vaqtda Jaloliddinning signaliga binoan uning jangchilari hali jangda ishtirok etmagan, charchamagan otlarga o‘tirib tezlik bilan dushmanga yetib oldilar va uni tor-mor etdilar. Jaloliddinga qarshi jang qilgan mo‘g‘ullarning yirik qo‘shinidan faqat tirik qolgan bir qismigina Chingizxonning qarorgohigacha yetib bordi. Jaloliddin tomonidan qo‘llanilgan taktikaning o‘ziga xos belgisi – otliq jangchilarni ham piyodalar safida, ham otlarda muvaffaqiyat bilan qo‘llaganligi bo‘ldi. Lekin 1221 yilning oxirida Jaloliddinning qo‘shinida harbiy boshliqlar o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan va ularning ayrimlari uni tashlab ketishgan. 1221 yilning dekabrda Sind daryosi (hozirgi Pokiston hududidagi Ind daryosining zamonaviy nomi) bo‘yida Chingizxon va Jaloliddinning qo‘shini o‘rtasida shiddatli jang bo‘lib o‘tdi, bu jangda mo‘g‘ullar g‘alabaga erishdilar. Ittifoqchilari tark etgan sultonning qo‘shini daryodan kechib o‘tishga ulgurmad. Yarim oy shaklida saf tortgan Jaloliddinning qo‘shini daryoga siqib kelindi. Jaloliddin mardonavor jang qildi, u qo‘shinning markazida 700 taga yaqin jangchilari qurshovida dushmanga qaqshatqich zarbalar berdi. Jaloliddin qo‘shinining zarbasi ostida hatto Chingizxon ham chekinishga majbur bo‘ldi. Lekin 10 minglik mo‘g‘ullarning pistirmasi jangning oqibatini hal qildi. Jaloliddinning qo‘shini tor-mor etildi. Bu jangda sultonning hamma yaqinlari halok bo‘ldi. Shaxsiy mardligi tufayli sulton qurshovni yorib chiqdi va oti bilan daryoga tashlandi. Jaloliddinning mardligiga qoyil qolgan Chingizxon o‘sha paytda uni ta‘qib qilishga ruxsat bermagan. Sind daryosidan o‘tganidan keyin Jaloliddin Shimoliy Hindistonning kichik bir qismida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1224 yilgacha Jaloliddin Hindistonda, keyin Kavkazda yashaydi, bu yerda u mahalliy hukmdorlarni mo‘g‘ullarga qarshi kurashish uchun birlashtirishga harakat qildi. 1227 yilning sentyabridagi Isfahon jangida Eronning g‘arbiy qismiga bostirib kirgan mo‘g‘ullarga qaqshatqich zarba bergan. U iste‘dodli sarkarda bo‘lib, mardligi va metindek irodasi bilan ajralib turadi. Mo‘g‘ul qo‘shinlarining son jihatdan ustun bo‘lishiga qaramasdan u Parvonda, Valiyonda, Isfahonda ularga qaqshatqich zarbalar berdi. 1231 yilda Jaloliddin Manguberdi Kurdiston tog‘larida halok bo‘ldi. U o‘zining qisqa umri (32 yosh) davomida o‘z xalqi va mamlakatining ozodligi uchun ko‘p ishlarni qildi. Muhammad Xorazmshohning atrofidagi ko‘pgina beklar dushmanga taslim bo‘lishga tayyor turgan vaqtlarida Jaloliddin bunga qarshi chiqdi va

o'zining bukilmis irodasi va mardligini ko'rsatdi. O'rta Osiyo xalqlarining mo'g'ullarga qarshi qahramonona kurashi katta tarixiy ahamiyatga ega. Bu kurash davomida bosqinchilarga katta talafotlar yetkazildi, ularning g'arbga tezlik bilan harakatlanishlariga to'sqinlik qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jaloliddin Manguberdi. / Mas'ul muharrir: X. Karomatov. – Toshkent: Sharq, 1999. – 272 b.
2. Razin E.A. Istoriya voyennogo iskusstva. Tom II. – M.: Voennoye izdatelstvo, 1957. – 655 s.
3. Yan V.G. Chingizxon. – Frunze: «Mektep», 1981. – 352 s.